



TALABALARNING TARIXIY O‘LKASHUNOSLIK FANI BO‘YICHA TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOSI

Yuldasheva N.N.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti tayanch doktranti

Tayanch so‘zlar: talaba, bilim, zamonaviy ta’lim, axborot, tadqiqotchilik kompetensiyasi, tadqiqot faoliyati, tadqiqot usuli, tarixiy tadqiqot, sayohat, ekskursiya, manba, arxiv hujjatlari, tarixiy o‘lkashunoslik, arxeologiya, etnografiya.

Ключевые слова: студент, знания, современное образование, информация, исследовательская компетентность, исследовательская деятельность, метод исследования, историческое исследование, путешествие, экскурсия, источник, архивные документы, историческое краеведение, археология, этнография.

Key words: student, knowledge, modern education, information, research competence, research activity, research method, historical research, travel, excursion, source, archival documents, local history, archaeology, ethnography.

1990 yillarning boshlarida sobiq ittifoq davlatlarida yuz bergan demokratik o‘zgarishlar tarix fanlari sohasiga yangicha yondashishga imkoniyat berdi. Bu esa o‘z navbatida talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish uchun maxsus imkoniyatlar eshiklarini ochdi.

Mustaqillik bizga mafkuraviy buyruqlardan xalos bo‘lish, xorijiy davlatlar bilan aloqa o‘rnatish imkoniyati, xorijiy ilm-fan yutuqlari bilan tanishish, mahfiy arxiv hujjatlarining topilishi, ilgari ta’qiqlangan adabiy va ilmiy asarlarning nashr etilishi shu davrgacha noma’lum bo‘lgan Vatanimiz tarixi, o‘tmishdagi odamlarning kundalik turmush tarzi, urf-odati, madaniyati, sulolalar tarixini o‘rganish kabi bir qancha yo‘nalishlarda xolislik tamoyiliga asoslangan holda ilmiy izlanishlar olib borish imkonini berdi.

Talabalarning tadqiqotchilik faoliyati mazmunidagi o‘lkashunoslik, jumladan, tarixiy o‘lkashunoslik masalalari 1990 yillarning boshidanoq olimlar, metodistlar va pedagoglarning o‘rganish predmetiga aylangan. Turizm va o‘lkashunoslik faoliyatida talabalarning tadqiqotchilik faoliyati mazmuni

va tadqiqot usulining mohiyatini birinchilardan bo‘lib ko‘rib chiqqan pedagog A.G. Ozerovning fikriga ko‘ra, “turizmدا kognitiv tadqiqot maqsadlari ijtimoiy-iqtisodiy hayot, pedagogika, ta’limda yuz berayotgan o‘zgarishlarga qaramay, bugungi kunda ham ustuvor vazifa bo‘lib qolmoqda” [1].

Avvalo “o‘lkashunoslik” va “tarixiy o‘lkashunoslik” tushunchalarining mazmun-mohiyati bilan tanishib chiqsak. Turli lug‘atlarda “o‘lkashunoslik” tushunchasi quyidagicha ta’riflanadi: “Ma’lum bir mamlakatning bir qismi, viloyat, shahar, qishloq yoki boshqa aholi punktlarining tabiati, aholisi, turmush tarzi, tarixi va madaniyatini asosan mahalliy aholi tomonidan o‘rganish” [2]; “Mahalliy aholi tomonidan o‘z ona yurti hisoblangan muayyan o‘lka, viloyat, shahar, tuman, qishloq va boshqalar hududlarning har tomonlama o‘rganilishi” [3]; “O‘lkani o‘rganish haqidagi fan; mamlakatning biror hududi haqidagi tarixiy, geografik va shu kabi bilimlar majmui” [4].

Rus tarixchisi va o‘lkashunos olimi Sigurt Ottovich Shmidt tarixiy o‘lkashunoslikni quyidagicha ta’riflaydi: “O‘lkashunoslik - har qanday o‘lkaning o‘tmishi va buguni bo‘lib, u ilmiy, madaniy, ma’rifiy va yodgorliklarni muhofaza qilish faoliyati hisoblanadi. Bu sohada nafaqat mutaxassislar, balki keng doiradagi odamlar, xususan mahalliy aholi ishtirok etadigan bir xil yo‘nalishdagi ijtimoiy faoliyatdir” [5].

Yuqoridagi barcha ta’riflarda umumiy bo‘lgan jihat tadqiqot faoliyatini amalga oshirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan “o‘rganish” so‘zidir.

Lug‘atlarda “Tarixiy o‘lkashunoslik” atamasi tarixning ma’lum bir sohasi, bo‘lim nomi sifatida eslatib o‘tilgan bo‘lsa-da, uning mohiyatiga aniq izoh berilmagan.

G.F. Gudkov va Z.I. Gudkova; V.N. Ashurkov, D.V. Katsyuba va G.N.Matyushin; G.N.Matyushin; A.F.Rodin; A.E. Seynenskiy; K.F.Stroyev; S.O.Shmidt kabi rus tarixchi-o‘lkashunos olimlarining asarlari tahlili “tarixiy o‘lkashunoslik” tushunchasining to‘g‘ri izohga ega emasligini ko‘rsatdi.

Mahalliy tarixchi olimlarimiz A.Nabiyev, I. Jabborov, T.Saidqulov, M.Xo‘jamov, J.Raximov, E.Safoyeva, D.Kuryazova, R.Mullajonova, F.Ochildiyevlarning bu boradagi izohlarini umumlashtirgan holda “tarixiy o‘lkashunoslik” tushunchasiga quyidagi qisqa ta’rifni berish mumkin: tarixiy o‘lkashunoslik – tarix fanining bo‘limlaridan biri bo‘lib, uning vazifasi ona yurt (viloyat, tuman, shahar, qishloq, ovul, mahalla) tarixini, undagi madaniy yodgorliklarni o‘rganish, qayd etish va muhofaza qilishdan iborat. Tarixiy o‘lkashunoslikning asosiy tamoyili o‘lka tarixi bilan mamlakat tarixi o‘rtasidagi uzviylikdir. Tarixiy o‘lkashunoslik ta’limning muhim elementlaridan biridir.



Shu yerda tarixchi olim A. Nabiyevning “Tarixiy o‘lkashunoslik” (O‘lkani o‘rganishning asosiy manbalari) nomli kitobida maktab o‘lkashunosligi haqidagi izohni qayd etish joiz deb hisoblaymiz: “... maktab o‘lkashunosligi o‘quvchilarda o‘z Vataniga mehr uyg‘otish bilan birga, ularni estetik ruhda tarbiyalashga ham munosib hissa qo‘shadi. Vatanga bo‘lgan mehr tuyg‘usi o‘z o‘lkasini o‘rganishdan boshlanadi. Maktab o‘lkashunosligida ana shunday tuyg‘u shakllanadi” [6].

A.E.Seynenskiy tahsil oluvchilarning tarixiy o‘lkashunoslik sohasidagi faoliyatining uchta darajasini belgilaydi:

1) “talabalar professor-o‘qituvchining so‘zlaridan, darsliklar va ommaviy axborot vositalaridagi xabarlardan o‘lka haqida “tayyor” bilim olishlari”;

2) “talabalarning kognitiv faoliyati yanada rivojlantirishga qaratilgan mustaqil ta’lim uchun sharoit yaratish”;

3) “talabalarning o‘z ona yurtlari tarixini bilishga qiziqish uyg‘otadigan chuqur izlanishlar jarayonida o‘rganish” [7].

Tarixiy o‘lkashunoslik sohasidagi talabalarning tadqiqotchilik faoliyati jarayoni quyidagilardan iborat:

- o‘lkashunoslik tadqiqotlarini o‘tkazish usullarini o‘rganish;
- ona yurt haqida so‘rovnomalar o‘tkazib, manbalar to‘plash;
- o‘lka tarixini, tarixiy va madaniy yodgorliklarining ilmiy, tarixiy va badiiy ahamiyatini o‘rganish;
- mahalliy qariyalardan xalq og‘zaki ijodiga oid rivoyat, afsonalar, matallar yig‘ish;
- yangi ekskursiya marshrutlarini ishlab chiqish;
- tarixiy nekropollarni tadqiq qilish;
- yozuvchilar, rassomlar, musiqachilar, harbiylar, siyosatchilar va boshqalarning hayoti va ijodi bilan bog‘liq unutilmas joylarni o‘rganish;
- tarixiy obidalarni, muhofaza etiladigan hududlar va majmualarning rekonstruksiya qilinish tarixini o‘rganish;
- o‘lkaning topografiyasi va toponimiyasi bilan tanishish;
- diniy inshootlar (ziyoratgohlar)ni aniqlash va ularni “Tarixiy va madaniy yodgorliklar ro‘yxati” ga kiritish.

Talabalarning asosiy vazifalari esa quyidagilar:

- mavjud manbalarni (og‘zaki, yozma, ko‘rgazmali, moddiy), adabiyot va internet saytlarini o‘rganish;
- davlat va idoraviy arxiv hamda muzeylardan materiallarni izlash;
- ekspeditsiyalarda, sayohatlarda, ekskursiyalarda ishtirok etish orqali ma’lumotni maqsadli yig‘ish;

- jismoniy shaxslar, muassasalar va tashkilotlar bilan yozishmalar;
- o‘z tadqiqot materialini to‘plash (tadqiqotchi arxivi).

Tarixiy o‘lkashunoslik vositalariga arxeologiya, genealogiya, biografika, antroponimika, toponimika, etnografiya, etnologiya, numizmatika, geraldika, faleristika, arxivshunoslik, muzeyshunoslik, tarixiy geografiya kabi maxsus tarixiy fanlar kirib, aynan ular “Tarixiy o‘lkashunoslik” atamasining shakllanishiga asos bo‘lgan.

Talabalarning tarixiy o‘lkashunoslik manbalari vositasida amalga oshiradigan ilmiy-tadqiqot faoliyati jarayoni tadqiqot predmetini ma‘lum bir o‘lka tarixi kontekstida o‘rganish va qo‘yilgan tadqiqot maqsadlariga erishishga qaratirilgan yo‘nalishlar, shakl va usullar majmuasidan iborat.

Talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyati o‘qituvchi, ma‘lum bilim sohasi mutaxassisi, tadqiqotchi rahbarligida yoki mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

Tarixiy o‘lkashunoslik bo‘yicha V.B. Kobrin, G.A. Leonteva, P.A. Shorin, P.A. Kolesnikov tomonidan yozilgan o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, internet saytlaridagi ma‘lumotlar, nashrlar tahlili hamda tarixiy o‘lkashunoslik sohasidagi o‘z amaliy tajribamiz natijasida, talabalar o‘qish jarayonida ega bo‘lishlari zarur bo‘lgan tadqiqotchilik kompetensiyasini ikki guruhga - umumiy va maxsus guruhlarga ajratishni taklif qilamiz.

Umumiy kompetensiyalarga:

- tadqiqot muammosi bo‘yicha nashrlarni aniqlash, o‘rganish va tahlil qilish;
- tadqiqot muammosi bo‘yicha vizual, og‘zaki hamda moddiy manbalarni to‘plash va o‘rganish;
- davlat, idoraviy va oilaviy arxivlar, kutubxonalar, muzeylar va shaxsiy kolleksiyalarda saqlanayotgan hujjatlar va materiallarni aniqlash, o‘rganish hamda tahlil qilish;
- topilgan va aniqlangan materiallar (fotosuratlar, hujjatlar, ashyolar va boshqalar)ni to‘g‘ri izohlash va atributlash;
- ma‘lumotlarni qayd etish, nashrlar, ijodiy ishlar va boshqalar ro‘yxatlarini (kataloglarini) tuzish;
- yozma tadqiqot ishlarining tuzilishini bilish kiradi.

Maxsus tadqiqot kompetensiyalari esa quyidagilardir:

- tarixiy atamashunoslikni rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti masalalariga yo‘naltirilganlik;
- tarixiy o‘lkashunoslik tadqiqotlarini o‘tkazishning asosiy usullarini bilish;



- tadqiqot ma'lumotlarini to'plash, tizimlashtirish va umumlashtirish kabi ko'nikmalarni shakllantirish;
- o'rganilayotgan masalaning xronologik jadvallarini tuzish;
- tarixiy o'lkashunoslik tadqiqotlarini mustaqil olib borish, uni tavsiflash, loyihalash va taqdimot tayyorlash malakalari.

Tarixiy o'lkashunoslik yo'nalishi talabalarida maxsus tadqiqot kompetensiyalari maxsus dasturlar bo'yicha o'qitish jarayonida shakllanadi.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, tarixiy o'lkashunoslik orqali talabalarning ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirishga quyidagilar yordam beradi:

- tarixiy yodgorliklar majmualariga ekskursiyalar uyushtirish. Bunday sayohatlar o'lkani chuqur o'rganish imkoniyatini beradi, talabalar nafaqat ko'proq bilimga ega bo'ladilar, balki o'z ko'zlari bilan ko'rgan yodgorliklarni yaxshi eslab ham qoladilar. Talaba gid (o'qituvchi) yordamida atrofda dunyoni o'rganadi. Hatto eng qisqa ekskursiyalar ham ma'lum bir kayfiyatni yaratadi, erkinlik hissini beradi. Ko'rgan va eshitgan ma'lumotlardan talabalarda bir umrlik xotiralar saqlanib qoladi;
- arxiv ma'lumotlari bilan ishlash. Tarixga ishtiyoqi baland talabalardan qat'iyatlilik, mustaqillik, e'tiborli bo'lish hamda ko'p vaqt sarflashni talab qiladi. Arxivda ishlash qobiliyati noyob ma'lumotlarni olish imkonini beradi;
- muzeylar o'lka tarixi haqida ma'lumotlar olishga cheksiz imkoniyatlar beradi, ayniqsa o'lkashunoslik muzeylaridagi ekspozitsiyalar, ko'rgazmalar darslarni qiziqarli, mazmunli qiladi, yangi bilimlarni egallashga katta yordam beradi;
- ma'lum bir mahalliy aholi o'rtasida tarqatilgan so'rovnomalar natijasida avlodan-avlodga o'tib kelayotgan ajdodlar haqidagi afsonalarni o'rganish yo'li bilan qiziqarli ma'lumotlar to'plash mumkin [8].

Tarix fani o'qituvchisining asosiy vazifasi talabalarni tarixiy bilish jarayoniga qiziqtirishdir. Pedagog I.S. Zolotaryova buni juda aniq izohlaydi: "Inson shunday mavjudotki, uning his-tuyg'ulariga nima ta'sir qilsa, shuni yaxshiroq eslab qoladi, qiziqarli voqealarni sevadi, qiziqarli hodisalarni esa eslab qolish oson" [9].

So'nggi yillarda yosh o'lkashunoslarning ilmiy-tadqiqot faoliyati davlat miqyosida e'tirofga ega bo'lib, milliy miqyosda amalga oshirila boshlandi va zamonaviy ta'lim jarayonining muhim qismiga aylandi.

Tarixiy o'lkashunoslik manbalaridan foydalangan holda talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatlarini shakllantirish jarayonining mohiyati tarixiy, arxeologik, toponimik, etnografik, arxivshunoslik va muzeyshunoslik tadqiqotlarni tashkil

etish, olib borish va taqdim etishning umumiy ilmiy va maxsus usullarini o‘zlashtirishni amalga oshirishdan iborat.

Shunday qilib, tarix jamiyatning ma’naviy rivojlanishini ta’minlaydi, talabalarda vatanparvarlikni tarbiyalab, faxr tuyg‘usini uyg‘otadi. 1980-yillarning oxiri — 1990-yillarning boshlarida vujudga kelgan tarixiy o‘lkashunoslik bir hudud yoki hududda yashovchi aholining turmush tarzi, urf-odatlarini, muqaddas qadamjolari, etnografiyasi nazariyasi va amaliyotini o‘rganishning yaxlit jarayoni hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Озеров А.Г. Содержание исследовательской деятельности учащихся в туристско-краеведческих объединениях экологической направленности. Автореферат дисс. ... канд. пед. наук. - М., 2001. — 10 с.
2. Советский энциклопедический словарь. Под ред. Прохорова А.М. Второе издание – М., 1983. - 642 с.
3. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. “O‘” harfi. 128-129 b. www.ziyouz.com kutubxonasi.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. “O‘” harfi. 150 b. www.ziyouz.com kutubxonasi.
5. Шмидт С.О. О книге «Краеведение и документальные памятники (1917-1929 гг.)» // Филимонов С.Б. Краеведение и документальные памятники (1917-1929 гг.). - М., 1989. - 4 с.
6. Nabiyev A. Tarixiy o‘lkashunoslik. T. “O‘qituvchi”, 1996. 6-b.
7. Сейненский А.Е. Краеведение в школьном историческом образовании [Электронный ресурс] // Импидж. Информационно-методический и дидактический журнал (Новосибирск). Гуманитарное образование в школе: Теория и практика. — 2005. — № 5. URL: http://www.image.websib.ru/05/text_article.htm7485.
8. Решетникова А.М. Туризм и краеведение // Актуальные проблемы туризма 1999: Перспективы развития туризма в Южном Подмоскowie: Сб. докл. и тез. сообщ. науч.-практ. конф., 27 апр. 1999. - С. 122-124.
9. Золотарёв А. Наука ли краеведение или только метод // Краеведение - 1926.-т.3, №3.-С. 329-331.

РЕЗЮМЕ

Maqolada tarixchi talabalarning tarixiy o‘lkashunoslik fani bo‘yicha ilmiy-tadqiqot faoliyati olib borishning usullari tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ

В статье анализируются методы ведения исследовательской деятельности студентов-историков в области исторического краеведения.

SUMMARY

The article analyses the methods of conducting research activities of history students in the field of historical local history.